

**MENTAL ENLIGHTENMENT SCIENTIFIC –
METHODOLOGICAL JOURNAL****MENTAL ENLIGHTENMENT SCIENTIFIC –
METHODOLOGICAL JOURNAL**<http://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/index>**THE TRANSFORMATION OF THE NATIONAL MENTALITY AND
THE SPECIFIC FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S
ENTREPRENEURSHIP***Dilbar B. Akhmedova**PhD**Bukhara State University**Bukhara, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: women's entrepreneurship, development, layer of entrepreneurs, national mentality of our people

Received: 02.10.23

Accepted: 04.10.23

Published: 06.10.23

Abstract: In this article, the social aspects of the entrepreneurial factor in the theoretical concepts of philosophy are studied. In elucidating social concepts of entrepreneurship, developed foreign socio-philosophical theories were first of all relied upon, in which they were comparatively analyzed, paying attention to the socio-philosophical theories of philosophers who contributed to the social development of entrepreneurship. This is of great importance in explaining the social aspects of entrepreneurship in the theoretical and methodological concepts of philosophy.

KIRISH

Sharqda xotin-qizlarga munosabat, ularning oila va jamiyat hayotidagi o'рни, tadbirkorlik, ijtimoiy faollik borasidagi qarashlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu sharqona odob-axloq me'yorlari, an'ana va urf-odatlarida, aksiologik qarashlarda namoyon bo'ladi. Turli davrlarda Xuroson, Muovaraunnahr, Turkiston o'lkasi xalqlari hayotida xotin-qizlarning o'рни masalasi uzoq tarixiy jarayonlar, voqealar bilan uzviy bog'liq. Xotin-qizlarga munosabat, ularning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotdagi o'рни masalasini o'rganishda tarixiy, ilmiy hamda adabiy manbalarga tayanishimiz mumkin.

ASOSIY QISM

Xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'рни turli davrlarda ijtimoiy me'yorlar doirasida cheklangan bo'lsa-da, tarixiy manbalar xotin-qizlar nafaqat oila, balki davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida faol bo'lganini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Misr fir'avni Amenxotep III ning rafiqasi

Teyya davlat boshqaruvida teng ishtirok etgan. Keyinchalik o'g'li Exnatonning taxtga o'tirishi munosabati bilan rasman "ona qirolicha" maqomini olgan. Teyya o'g'liga kuchli ta'sir o'tkazgan, mamlakatning ichki va tashqi siyosatida o'rni katta bo'lgan.

Shuningdek, Zarina-jangchi ayol o'z xalqi mustaqilligining himoyachisi, shaharlar bunyod etgan shaxs sifatida tarixda iz qoldirgan. Sparetra haqidagi rivoyatda, bir tomondan, jasur va sabotli ayol jangchining siymosi, ikkinchi tomondan fidoyi ma'shuqa, sodiq umr yo'ldosh sifatida gavdalanadi. Kaspiy dengizi sharqida massagetlar malikasi To'marisni Midiya bilan Vavilonni zabt etgan podsho Kir mag'lub etolmagan.

"Avesto" Markaziy Osiyo mintaqasidagi qadimiy ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari, ularning turmush tarzi, dini va e'tiqodi haqidagi ilk yozma manba hisoblanadi. Unda jamiyat va oilaviy munosabatlarda xotin-qizlarning sotsial qiyofasi borasida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov "O'g'il bolalarga nisbatan ham qiz bolalar ilm-u donish o'rganishga kirishsinlar. Zero, ular ota-ona yoshida bo'lgan vaqtlarida ota xonadonini tartibga solib, ziynat berib tursalar, turmush qurgach, bolalar tarbiyasi bilan, kelajak avlod ta'limi bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim", deb keltiradi.

Ijtimoiy madaniy hayotda xotin-qizlarning tutgan o'rnini o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Zardushtiylikda xotin-qizlarga munosabat masalalarini o'rgangan M.Hamidova "Qizlar uy-ro'zg'or ishlaridan tashqari o'g'il bolalar bilan kurash tushish, chavandozlik, qilichbozlik, suvda suzish, kamondan o'q uzish kabi jismoniy-harbiy malaka beruvchi, keyinchalik jamoa ichida tegishli maqomni taqdim etuvchi "hayot maktabi" ni egallashi majburiy bo'lgan" ini ta'kidlaydi. Shundan so'ng qizlar va o'g'il bolalar oqsoqol boshchiligida jamoa oldida maxsus imtihondan o'tkazilgan. Imtihonni muvaffaqiyatli topshirgan qizlar "kadbonu" – uy bekasi, yigitlar esa "kadxudo" – oila boshlig'i maqomini qo'lga kiritganlar. Ularning ushbu *maqomlar doirasida bajaradigan vazifalari qat'iy belgilangan. Demak, bu davrda mintaqamizda xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi o'rni erkaklarniki bilan teng bo'lmasa-da, erkaklarning xotin-qizlar faolligiga munosabati salbiy emas edi.*

Turkiy xotin-qizlarning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rnini o'rgangan falsafa fanlari doktori O.Nishonovanning fikriga ko'ra, ular ijtimoiy hayot va siyosatda faol ishtirok etganlar. Qabila hayotida muhim o'rin egallagan ayollar ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi va institutlashtiruvchi madaniy-xo'jalik tiplarini yaratdilar. Ammo ushbu xususiyatlarning muqim shaklga kirishi ayollarning oilada "o'choqboshi", "uy bekasi" bo'lishi bilan bog'liq holda kechdi.

IV-VII asrlardagi Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning rolini Abulqosim Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida ifodalaydi. Firdavsiyning ushbu asarini o'rgangan olim, xalqaro Firdavsiy mukofoti laureati Shoislom Shomuhamedovning yozishicha: "Shohnoma"dagi odil shohlar obrazi, yorlariga haqiqiy do'st, vatanlariga sodiq fidoyi xotinlar obrazi va shunga o'xshash dostonlardagi ajoyib xislatlar bu kitobni chinakam xalq mulkiga aylantirib yuborgan". Demak, "Shohnoma"da Eron,

O'rti Osiyo xalqlarining Iskandar Zulqarnayn davridan to arablar fathigacha bo'lgan tarixi yoritiladi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri Iskandarning Ravshanakning onasi Diloroy bilan yozishmalarida yaqqol ifodalanadi. E'tiborlisi, Diloroy Iskandar nomasiga quyidagi javobni yozganida nafaqat o'z oilasi, balki el-yurt manfaatini ko'zlaydi:

Maktubga tezda u yozdirdi javob,

Ma'no durlarini tizib behisob.

O'farinlar aytib ul zotga avval,

Maqsad-u matlabin ochdi galma-gal.

Dedi yazdon nomin olib u tilga:

«Jangu sulh va shafqat sendandir elga».

Manbalarda ko'rsatilishicha, arablar fathi arafasida Movarounnahrning muhim viloyatlaridan bo'lgan Buxoroda ikki yoshli Tug'shoda rasman taxt tepasida tursa-da, hokimiyatni amalda uning onasi Turkon Xotun boshqargan. O'z davrida u Samarqand – Buxoro – Amudaryo savdo yo'lini nazorat qilgan. Arablar fathi boshlangach, Buxoro viloyati mudofaasi uchun jang olib borgan.

Garchi ayrim ilmiy doiralarda islom davrida musulmon xotin-qizlarning huquqsizligi, ularning davlat boshqaruvidan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlardan butunlay chetlatilgani haqidagi fikrlar yetakchi o'rin tutsa-da, amalda vaziyat o'zgachaligini ko'rish mumkin. Xususan, Qur'oni karimda: “Xotin-qizlar uchun (belgilangan huquqlar) o'z me'yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir”, - deyiladi. Abu Hurayra (r.a.) Payg'ambarimiz (alayhissalom)dan rivoyat qilgan hadisda shunday marhamat qilinadi: “Sizlarning yaxshilaringiz ahli ayoliga yaxshi muomalada bo'lganlaringizdir. Men hammangizdan ko'ra ahliga yaxshiroq muomala qiluvchingizman”. Qur'oni karim va hadislarda xotin-qizlarning huquqlari bo'yicha ko'plab qoidalar mavjud. Xususan, “Alloh taolo ayollar bilan yaxshi muomalada bo'lishlaringizni tavsiya etadi, chunki ular onalaring, qizlaring, xolalaringdir” hadisi buning yorqin dalili bo'la oladi. Ayol oilaning ma'naviy mustahkamligini ta'minlovchi va barkamol farzandni tarbiyalab voyaga yetkazuvchi zot sifatida ta'riflandi. Qur'oni karimning “Baqara” surasida: “Ayollar uchun belgilangan huquqlar o'z me'yorida erkaklar huquqi bilan tengdir”, - deyilgan.

Turk islomshunosi Bahri Uchoqo'zi “Musulmon davlatlarida ayol hukmdorlar” nomli monografiyasida yozishicha, ayollar nafaqat fan va adabiyot, san'atda, balki siyosatda ham o'z nomlarini abadiylashtirganlar. Muallifning yozishicha: “Payg'ambarning xotini Oyisha Jamil jangida erkak sarkardalar kabi lashkarlarni boshqardi... Shunga qaramay, ayrim G'arb tadqiqotchilari Sharq ayollarining islomiy jamiyatdagi mavqeini noto'g'ri talqin qilib, ularni erkaklarning quli yoki devor orti (ichkari)dagi xizmatkor sifatida ko'rsatdilar”. Vaholanki, musulmon ayollar o'zlarining huquqiy maqomini G'arb ayollariga nisbatan oldinroq anglab yetganlar. Jamiyatda o'rni, savdo va mulkiy taqsimotda o'z ulushiga ega bo'lganlar.

Aynan islom dini rahnamoligida ayollar ilm-fan va madaniyatda yuqori marralarni egalladilar. Ayollardan mashhur tabib va muhaddislar yetishib chiqqan. Xususan, Qozi Abu Ja'far To'fjoliynning qizi Ummul Husno arab dunyosining mashhur tabiblaridan sanalgan. Karima Utruziya Sayyida Nafiyasa bintu Muhammad esa mashhur muhaddis darajasiga erishgan.

Markaziy Osiyo Uyg'onish davri sanalgan IX-XII asrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlar o'z asarlarida xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi mavqei borasidagi fikrlarni bildirib o'tganlar. Aynan ushbu davrda kuzatilgan iqtisodiy va madaniy yuksalish ayollarning ijtimoiy hayotidagi faolligiga qulay muhit yaratdi.

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni, sotsiomadaniy qiyofasidagi o'zgarishlarni yuksaltirish uchun imkoniyat yaratildi. Sohibqiron saltanatidagi xotin-qizlarga bo'lgan hurmat-e'tibor va ishonch diqqatga sazovor. Amir Temur: "Xotin-qizlarga imkon qadar iliq muomalada bo'lishga harakat qildim", deb yozgan. Saroymulxonim Amir Temur nikohiga kirgach, mamlakatning eng nufuzli xotin-qizlaridan biriga aylandi, saltanatda "Bibixonim" degan yuksak mavqega ega bo'ldi. Bibixonim yuksak idrok egasi, o'qimishli, ma'rifatli bo'lish bilan birga, benazir did-farosat sohibasi ham edi. U iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotdan yaxshi xabardor bo'lib, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan ishtirok etgan.

Bunday yuksak sifatlar o'z navbatida, o'zbek millati tarixida jasorat va matonati, aql-zakovati, mehnati va bunyodkorlik salohiyati buyuk farzandlar tarbiyasida mehri bilan abadiy nom qoldirgan temuriy malikalar – Gavharshodbegim, Xonzodabegim, Gulbadanbegim, Zebunisobegim kabi o'z davrining yetuk xotin-qizlariga ham dahldor. Xotin-qizlarning ijtimoiy maqomi jamiyat targ'ibotidan kelib chiqib, ijobiy qabul qilingan va bu an'ana temuriylar davrida ham saqlanib qolgan.

Sohibqiron Amir Temurning o'g'li Shohrux Mirzoning sadoqatli rafiqasi, buyuk olim, sarkarda va davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshod bintu G'iyosiddin Tarxon (Gavharshodbegim) ziyarak va aql-idrokli ayol sifatida saltanatni boshqarish ishlarida ishtirok etgan. Shohrux mirzo o'z rafiqasining oqila va donoligiga tan berib, uning maslahatlariga tayangan. Gavharshodbegim Shohrux mirzoning xarbiy yurishlarida birga ishtirok etgan. Mamlakatdagi bunyodkorlik ishlariga katta hissa qo'shgan. Gavharshod bintu G'iyosiddin Tarxon nomi bitilgan uzuk-muhr, Gavharshodbegim o'z davrida Temuriylar saltanatining e'tiborli a'zolaridan biri bo'lganini tasdiqlaydi. Ushbu uzuk-muhr Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj muzeyida saqlanmoqda.

XIX asr oxiri XX asr boshida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati xotin-qizlar masalasidagi munozaralarda tub burilish yasadi. Jadidlar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy yangilanish jarayonlarida xotin-qizlarning rolini oshirishni targ'ib qildilar. Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvarlarning fikrlari diqqatga sazovor. Birgina Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Xotin-qizlarni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida qabul qilmasdan, yosh avlodni to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib jamiyatni isloh qilish,

uni taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, oxir-oqibatda millat taqdiri uning xotin-qizlari va oilasining holatiga bog‘liqdir”, – degan fikri zamirida zamonaviy jamiyatlarga xos progressiv ruh yotishini ko‘rishimiz mumkin.

Fitrat o‘zining “Oila” asarida “Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi milliy ozodlik, erk uchun zarur, xotin-qizlar faqat uy-ro‘zg‘or bilan, bola tarbiyasi bilan band bo‘lib qolmasligi, ularning Yevropadagi kabi siyosatda qatnashishlari o‘rinlidir”, degan fikrni ilgari suradi. Fitrat o‘z davrida erning xotining nisbatan feodallarcha munosabatini keskin tanqid qilgan. Jamiyatda xotin-qizlar huquqini mensimaslik sabablarini ochib bergan. Uningcha, loqaqal, er-xotin o‘rtasida samimiy munosabat bo‘lishiga erishish lozim.

Ma‘rifatparvar jadidlarning xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o‘rni borasidagi ilg‘or fikrlari o‘sha paytdagi davriy nashrlarda e‘lon qilingan. Abdusalom Azimiyning “Ta‘lim va tarbiya» maqolasida: “Bolaga ona birinchi omil va murabbiydir. Onaning ta‘siri bolaga otaning ta‘siridan ziyodadir”, - deyiladi.

Demak, XIX asr oxiri XX asr boshida Turkistonda millat taqdiri oilada ayollarning o‘z farzandlariga berayotgan tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqligi masalasi ko‘tarildi. Bunga faqatgina o‘qimishli, oqila, ma‘rifatparvar xotin-qizlar orqali erishish mumkin edi. Ushbu mavzu o‘z davrida dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu borada tadqiqot olib borgan N.A. Mustafaevaning ta‘kidlashicha, o‘sha paytda “Sadoyi Turkiston” gazetasida chop etilgan “O‘qinglar, onalar”, “Hamshiralilar tilidan” kabi maqola va she‘rlarda Turkiston xotin-qizlarining “mute‘ joriya” larga aylanib qolgani, ularning ma‘rifatli bo‘lishiga qarshi chiqishlarga chek qo‘yish zarurati uqtirilgan va bu qizg‘in munozaralarni keltirib chiqargan. Abdulla Avloniy xotin-qizlarni ilm olishga, hunar o‘rganishga targ‘ib qilib yozgan asarlarida “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilur?” kabi savollarni qo‘yar ekan, “Bu ona vazifasidir”, - deydi. Avloniy yosh avlod tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan onalarning o‘zlari ilmi, ma‘rifatli bo‘lishi shartligini ko‘rsatadi, “Ma‘suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashaturg‘a oshiqingiz”, - deydi. “Na uchun ibrat olmaymiz?” maqolasida qizlarga zeb-ziynat emas, balki ilm, hunar o‘g‘il bolalarga qaraganda ham ko‘proq kerakligi uqtiriladi, buning sababi xotin-qizlar millat tarbiyachisi ekanida deb ko‘rsatiladi.

XX asrning dastlabki choragida sobiq sovet hukumati xotin-qizlarga munosabat masalasini kommunistik partiya mafkurasidan kelib chiqib hal qilish yo‘lidani bordi. Qishloqlarda faoliyat yurituvchi “qizil burchaklar”da xotin-qizlar yig‘inlari uyushtirilib, unda sotsialistik turmush tarzini zo‘r berib singdirish ishlari olib borildi.

O‘zbek xalqi uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida o‘ziga xos etnomadaniyat yaratgan. U boshqa xalqlar, millatlar madaniyati bilan integratsiyalashib, hayot tarziga mos kelgan innovatsiyalarni qabul qilgan va umuminsoniy qadriyatlar negizida rivojlanib kelgan. Ushbu umuminsoniy xususiyat o‘zbek xotin-qizlari etnomadaniyatiga ham xos. Bu borada tadqiqot olib borgan O.Nishonovning ta‘kidlashicha: “O‘zbek xotin-qizlari etnomadaniyatida o‘ziga xos turmush tarzi, hayotiy tajribasi, urf-odatlarini, avlodlararo

muloqot an'analari, dunyoni anglash, idrok etish usullari, oilaviy-maishiy marosimlari, ma'naviy boylklari, ijtimoiy normalar, madaniy ijod namunalari jamlangan".

Yuqorida ilgari surilgan sotsial-retrospektiv dalillarga asoslanib quyidagi xulosalarga keldik:

Mehnat taqsimoti, tovar-pul munosabatlari, monogam oila va xususiy mulkning paydo bo'lishi bilan shakllangan patriarxal ijtimoiy institut sifatida har bir davrda xotin-qizlar masalasida ommaviy tafakkurga xos mustahkam qarashlar va an'analar tizimi yaratilgan.

An'anaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan patriarxal munosabatlar negizida shakllangan ijtimoiy me'yorlar, tartiblar davlatlar rasmiy qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topib, xotin-qizlarning ulardan chetga chiqishi qoralangan bo'lsa-da, bu boradagi tadqiqotlar, aslida, xotin-qizlarning nafaqat oila, balki davlat darajasida faol bo'lganini ko'rsatadi.

Islom dini ijtimoiy hayotda xotin-qizlar imkoniyatlarini bir qadar cheklagan bo'lsa-da, nikoh, oila, meros va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarda ularning huquq va imkoniyatlarini kafolatlagan.

VIII-XV asrlardagi Movarounnahrda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi sotsial qiyofasidagi o'zgarishlarni *qo'llab-quvvatlash borasidagi ijtimoiy imkoniyatlar*, ushbu hududda asrlar davomida shakllanib, etno-mental ko'nikmaga aylangan erkinliklari Temuriylar hukmronligi davrining oxirigacha muayyan darajada saqlanib turgan.

Jadidlar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy yangilanishi jarayonlarida xotin-qizlarning rolini oshirishni targ'ib qilar ekanlar, ma'rifat tarqatish va asrlar davomida qotib qolgan diniy xurofot va bid'atdan voz kechish xotin-qizlar erkinligini ta'minlashning yagona yo'li ekanini ta'kidlaganlar.

Xotin-qizlar mehnatidan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish maqsadida sobiq totalitar tuzum ma'muriy-buyruqbozlik apparati tomonidan qo'llanilgan xotin-qizlarni ozod qilishning radikal choralari ularning ming yillik turmush tarzi, diniy-madaniy muhitdan uzoqlashuviga olib kelgan, bunday radikalizm axloqiy-ma'naviy qadriyatlar, me'yorlar doirasida yashab kelayotgan o'zbek xalqi uchun ijtimoiy zarba bo'lgan.

Sovet davrida qishloq ayollari ko'p farzandliliigi negizida iqtisodiy omil ustuvor bo'lib, har bir bolaga olinadigan nafaqa uchun ko'p tug'ish kuzatilgan.

XULOSA

Vatanimiz taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o'rin va mavqega ega, ayollarimiz mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va iqtisodiy hayotidagi barcha sohalarda xususan, davlat boshqaruvi va vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, fermerlik, sog'liqni saqlash, ta'lim, ma'rifat, madaniyat va boshqa sohalarda samarali mehnat qilishmoqda. Yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oila mustahkamligini ta'minlash davlat siyosati darajasida ekanligi bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bu borada gap ketganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xotin-qizlarni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini himoyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son

“Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish” chora-tadbirlari to‘g‘risida farmonda xotin-qizlarga imkoniyatlar va imtiyozlar berilgan. Viloyatimizda xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va ularni ijtimoiy, iqtisodiy ko‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar yildan -yilga tadbirkor ayollar sonini oshishga olib kelmoqda. Masalan, Bo‘ldiyeva Shoirra to‘qimachilik, Fayziyeva Dilorom qurilish mollari mahsulotlarini ishlab chiqarish, Adilova Matob issiqxona, Bakayeva Feruza mexmonxona xizmati sohaslarida faoliyat yuritmoqdalar, bunday misollarni juda kup keltirish mumkin.

Xotin-qizlarimiz yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oldingi safida borib, Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi yo‘lida samarali mehnat qiladilar. Oilalardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalash asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш. Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси. 2018 йил 29 декабрь. № 271-272.
2. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Тошкент: Ўзбекистон. 2018. –Б. 84.
3. Каримов И. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Тошкент: Ўзбекистон. 1997. – Б. 335.
4. Chorlieva M. A. PHILOSOPHICAL IDEAS IN FIRDAUSI’S SHAHNAMEH //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 46-52.
5. Ортиқов А. Иқтисодий ҳуқуқий атамаларнинг изоҳли луғати. Т. Ғ.Ғулом номли Адабиёт ва санат нашриёти. 1996. –Б. 100-101.
6. Қосимова М. ва бошқалар. Кичик бизнесни бошқариш. Тошкент: Ўқитувчи. 2003.-Б. 17.
7. Choriyeva M. A. THEORY OF KNOWLEDGE AND RATIONALISM IN THE PHILOSOPHY OF FIRDAVSI //European International Journal of Pedagogics. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 104-108.
8. Энциклопедический словарь предпринимателя. Алга фонд: АЯКС. 1992. с.- 137-138.
9. Хусейнова А. А. Янги Ўзбекистон шароитида инсон ҳуқуқларини химоя қилишнинг асосий омиллари //Журнал правовых исследований. – 2022. – Т. 7. – №. 5.
10. Huseynova A. СЕМЕЙНЫЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ И ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ДЕТЕЙ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 19. – №. 19.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент. 2004. –Б. 35-36.

12. Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: Университет. 2007.- Б. 25-26.
13. Shakhnoza R., Amanovna H. A. PSYCHOLOGICAL FACTORS OF STRENGTHENING INTERPERSONAL RELATIONS IN FAMILIES //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 1439-1447.
14. Абдуллаев А. ва бошқалар. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик: ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш. Тошкент: Фан ва технология. 2005.-Б. 5
15. Axmedova D. AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSLARI //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – С. 50-50.
16. Axmedova D. JAMIYAT IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTIDA AYOLLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISH OMILLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 7. – С. 171-178.
17. Перепёлкин Ю.Я. История Древнего Египта. – СПб.: Летний сад, 2001. – С. 340.
18. О‘zbekiston xalqlari tarixi. I tom -Toshkent: “Fan”. 1992. - b.25.
19. О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “Т” harfi. Ad.: Gerodot, Istoriya (v devyati knigax), Leningrad: 1972.
20. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Т.: Sharq. 1998. – В. 10.
21. Shimmel A. Jonon mening jonimda. – Toshkent: Sharq, 1999. – В. 173.
22. Nishonova O. O‘zbek ayollari etnik madaniyatining o‘ziga xos ko‘rinishlari // Milliy qadriyat va urf-odatlarini saqlashda ayollarning o‘rni. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2018. – В. 163.
23. Shomuhamedov Sh. Abadiy barhayot asar // Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. – Toshkent: O‘zME, 2018. – В. 6.
24. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. – Toshkent: O‘zME, 2018. – В. 415.
25. Кричевский Р.Л., Дубовская Е.М. Социальная психология малой группы: Учебное пособие для вузов. – Москва: Аспект Пресс, 2001. – С. 318.
26. Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. – Toshkent: Movaraunnahr, 2019. – В. 23.
27. Ijtimoiy himoyaga oid Qur’oni karim oyatlari va hadislardan namunalar / Mas’ul muharrir Z.Islomov. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2007. – В. 49.
28. Yusupova N., Rashidova Sh. Oilaviy hayotning shar’iy asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Т.: Tasvir 2020. – В.8.
29. Учок Б. Женщины-правительницы в мусульманских государствах. – М., 1988. – С. 128.
30. Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. – Т.: 2019. – В. 251.
31. Hamidova M. O‘zbekiston davlat va huquqi tarixi. – Т.: TDYuI, 2005. – В.27-28.

32. Dadamuhammedov B. Temuriy malika Gavharshodbegimning uzuk-muhri // Milliy qadriyat va urf-odatlarini saqlashda xotin-qizlarning o‘rni. – T.: 2018. – B.249.
33. Kuli Ch. Chelovecheskaya priroda i sotsialnyy poriyadok. Per. s angl. – Moskva: Ideya-Press, 2000. – 234 s.
34. Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 256.
35. Mustafayeva N.A. Ma’rifatli ayol millat tarbiyachisi // Milliy qadriyat va urf-odatlarini saqlashda ayollarning o‘rni. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2018. – B. 266.
36. Nishonova O.J. O‘zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari (falsafiy-madaniy yondashuv): Falsafa fan. nomz... dis. avtoref. – Toshkent, 2005. – B. 21.
37. Sh. Mirziyoyev“Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF–87-son, 07.03.2022 y.)